

Muzey – tarix ko‘zgusi

“18 may – Xalqaro muzeylar kuni”ni nishonlash maqsadida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “Muzey – tarix ko‘zgusi” nomli tadbir hamda “O‘zbek xalqining o‘lmas an‘analari” nomli ko‘rgazmaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Tadbir Respublika “Hunarmandlar” uyushmasi, Ozarbayjon milliy madaniyat markazi, “AGIDEL” nomli notijorat jamoat-madaniy klubi, Yunusobod tuman hokimiyati, K.Behzod nomidagi [Milliy Rassomlik va Dizayn Instituti](#), O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, Respublika dizayn kolleji, Respublika rassomlik kolleji, “Sharq ziyokori” MCHJ, Sergeli tumani 8-maktab o‘quvchilari, “Barkamol avlod” bolalar ijodiyoti markazi bilan hamkorlikda o‘tkazildi.





Tadbir doirasida ishtirokchilar tomonidan ko'rgazma-yarmarkalar, badiiy chiqishlar, kitoblar savdosi, yangi nashrdan chiqqan kitoblar taqdimoti, liboslar namoyishi, kulolchilik va kashtachilik yo'nalishlari bo'yicha mahorat darslari tashkil etildi.